

TERMIZ SHAHRIDA MO'TABAR AYOLLAR, MUNIS OPA-SINGILLAR SHARAFLANDI

TERMIZ SHAHRIDA MO'TABAR AYOLLAR, MUNIS OPA-SINGILLAR SHARAFLANDI

8 mart – “Xalqaro xotin-qizlar kuni” munosabati bilan “Afruz” tantanalar saroyida o'tkazilgan bayram tadbirida dastlab, Termiz shahar hokimi Isroil Xudoyberdiev munis onaxon va opa-singillarimizni bayram bilan qutlab, tabrigini o'qib eshittirdi.

Shundan so'ng, shahrimizda turli sohalarda uzoq yillar va samarali mehnat qilib kelayotgan bir guruh fidoyi ayollarga shahar hokimligining faxriy yorliqlari va qimmatbaho sovg'alarini topshirdi.

Bayram san'atkorlar ijrosidagi badiiy dasturga ulanib, ishtirokchilarga xushkayfiyat ulashdi.